

O‘ZBEKISTONDA TURIZM TARMOQLARINI SINERGETIK RIVOJLANTIRISH ASOSIDA BOSHQARUV MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Saidova Dilfuza Abdufattohovna

Farg‘ona davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekistonda turizm tarmoqlarini sinergetik rivojlantirish asosida boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish masalalari tahlil qilingan. Turizmning turli yo‘nalishlari — madaniy, ziyorat, agro-, eko-, gastronomik turizm o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik va ularni uyg‘unlashtirish zarurati nazariy va amaliy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqot jarayonida sohaviy o‘shish ko‘rsatkichlari, hududiy infratuzilma holati va investitsiyaviy faollik tahlil qilindi. Maqolada sinergetik boshqaruv modeli joriy etishning institutsional, iqtisodiy va tashkiliy asoslari hamda amaldagi muammolarga yechim sifatida amaliy tavsiyalar taqdim etilgan. Xulosa sifatida, tarmoqlararo hamkorlikni kuchaytirish, resurslarni integratsiyalash, raqamli boshqaruvni joriy etish va hududiy turizmni klasterlar asosida rivojlantirish kabi yo‘nalishlar asosiy ustuvorlik sifatida belgilangan.

Kalit so‘zlar: turizm, sinergetik rivojlanish, boshqaruv mexanizmi, tarmoqlararo hamkorlik, hududiy turizm, klaster modeli, infratuzilma, investitsiya, turizm yo‘nalishlari, iqtisodiy samaradorlik.

Аннотация

В данной статье анализируются вопросы совершенствования механизмов управления, основанных на синергетическом развитии секторов туризма в Узбекистане. Взаимозависимость между различными направлениями туризма — культурным, паломническим, агро-, эко-, гастрономическим — и необходимость их гармонизации обоснована как теоретически, так и практически. В ходе исследования были проанализированы показатели роста отрасли, состояние территориальной инфраструктуры и инвестиционной активности. В статье представлены институциональные, экономические и организационные основы внедрения синергетической модели управления, а также практические рекомендации в качестве путей решения текущих проблем. В качестве вывода основными приоритетами обозначены такие направления, как укрепление межотраслевого сотрудничества, интеграция ресурсов, внедрение цифрового управления и развитие территориального туризма на основе кластерного подхода.

Ключевые слова: туризм, синергетическое развитие, механизм управления, межотраслевое сотрудничество, территориальный туризм, кластерная модель, инфраструктура, инвестиции, туристические направления, экономическая эффективность.

Abstract

This article analyzes the issues of improving management mechanisms based on the synergistic development of tourism sectors in Uzbekistan. The interdependence between different directions of tourism — cultural, pilgrimage, Agro-, yeco-,

gastronomic tourism and the need to harmonize them-is theoretically and practically justified. In the course of the study, indicators of field growth, the state of Territorial Infrastructure and investment activity were analyzed. The article presents institutional, economic and organizational foundations for the introduction of a synergistic management model and practical recommendations as solutions to current problems. As a conclusion, such areas as strengthening inter-sectoral cooperation, integration of resources, the introduction of digital management and the development of territorial tourism on the basis of clusters are designated as the main priority.

Keywords: tourism, synergistic development, management mechanism, inter-sector cooperation, territorial tourism, cluster model, infrastructure, investment, tourism directions, economic efficiency.

KIRISH

So'nggi o'n yillikda turizm global miqyosda eng tez rivojlanayotgan va iqtisodiyotning ko'p vektorli ta'sir ko'rsatuvchi sohalaridan biriga aylandi. Jahon turistik tashkiloti (UNWTO) ma'lumotlariga ko'ra, turizm dunyo bo'yicha ish o'rinlarining taxminan 10 foizini, yalpi ichki mahsulotning 7 foizini tashkil etmoqda. Ayniqsa, pandemiyadan keyingi davrda turizm faqat dam olish vositasi emas, balki mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy tiklanishida muhim omil sifatida ko'rilmogda.

O'zbekistonda ham turizm sohasiga davlat miqyosida e'tibor kuchaydi. Mamlakatda turizmni milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, hududlarni jadal rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, aholining daromadlari va turmush darajasini oshirish, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishni ta'minlovchi strategik tarmoqlardan biri sifatida rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Viza rejimining liberallashtirilishi, chet el fuqarolarini ro'yxatga olish tartibining soddalashtirilishi, turizm tarmog'ini rivojlantirish uchun imtiyoz va preferensiyalar berilishi milliy turizm salohiyatini ichki va tashqi bozorlarda samarali targ'ib qilish imkonini berdi [1].

Shu bilan birga, sohadagi ayrim tizimli muammolar ham mavjud. Turizm tarmoqlarining (ekoturizm, ziyorat, agroturizm, madaniy, tibbiy va boshqalar) o'zaro aloqasiz va uzviy integratsiyasiz faoliyat yuritishi, ularni boshqarishda yagona strategik yondashuvning yo'qligi, hamkorlik platformalarining yetarli emasligi samaradorlikni pasaytirmoqda. Turizmni faqat yakka tarmoq sifatida emas, balki iqtisodiyotning turli sohalari bilan bog'liq, bir-biriga ta'sir etuvchi tizim sifatida ko'rish talab etilayotgan bir sharoitda bu kabi yetishmovchiliklar soha rivojiga to'siq bo'lmoqda.

Bunday sharoitda sinergetik rivojlanish tushunchasi, ya'ni turizmning barcha yo'nalishlari va unga bog'liq sohalari o'rtasida o'zaro ta'sir va integratsiyani ta'minlash orqali yuqori samaraga erishish g'oyasi tobora dolzarb tus olmoqda. Sinergetik yondashuv soha ichidagi resurslar, ma'lumotlar, infratuzilma, xizmat ko'rsatish texnologiyalari va kadr salohiyatining o'zaro muvofiqlashgan holda ishlatilishini nazarda tutadi. Bu esa nafaqat faoliyatni optimallashtirish, balki innovatsion yechimlarni tezroq joriy etish, turistik mahsulotni diversifikatsiya qilish va mahalliy hududlar salohiyatidan kengroq foydalanish imkonini beradi.

Ayniqsa, hududiy rivojlanish nuqtai nazaridan turizm tarmoqlarini sinergetik asosda boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, Farg‘ona vodiysida agroturizm va an’anaviy hunarmandchilik, Qoraqalpog‘istonda ekoturizm va arxeologik meros, Samarqand va Buxoroda ziyorat turizmi bilan madaniy turizmni uyg‘unlashtirish orqali yangi turistik mahsulotlar yaratish mumkin. Bu nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki hududiy barqarorlik, mahalliy aholi bandligi va ijtimoiy faollikni ham ta’minlaydi.

Turizm XXI asrda jahon iqtisodiyotining eng faol va strategik tarmoqlaridan biriga aylandi. U nafaqat daromad manbai, balki mamlakatlar o‘rtasidagi madaniy muloqot, ijtimoiy taraqqiyot va innovatsiyalarning keng tarqalishiga xizmat qiluvchi ko‘p qirrali soha hisoblanadi. Jahon turistik tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, 2030-yilga borib xalqaro turistlar soni 2 milliard kishiga yetishi kutilmoqda. Bu esa davlatlardan soha rivojiga bo‘lgan yondashuvni tubdan qayta ko‘rib chiqishni, samaradorlik va innovatsion yechimlarga asoslangan boshqaruv modellarini joriy etishni taqozo etadi.

O‘zbekistonda turizm sohasini strategik rivojlantirishga qaratilgan siyosiy va iqtisodiy islohotlar keyingi yillarda yangi bosqichga ko‘tarildi. Turizm milliy iqtisodiyotning muhim drayveriga aylantirilmoqda. Ayniqsa, viza rejimining yengillashtirilishi, transport va logistika infratuzilmasining yaxshilanishi, xorijiy sayyohlar oqimining oshishi bilan bir qatorda, mahalliy turizm ham rivojlanmoqda. 2017–2023-yillar oralig‘ida mamlakatga kelgan xorijiy sayyohlar soni 2,5 barobarga oshdi. Shu bilan birga, yangi turistik zonalar, klasterlar va maxsus iqtisodiy zonalar tashkil etildi.

Shu bilan birga, sohada hali ham to‘liq yechimini topmagan muammolar mavjud: turizm yo‘nalishlari o‘rtasidagi tartibli hamkorlik yetishmasligi; markazlashgan boshqaruv usulining chegarali imkoniyatlari; turizm xizmatlari va infratuzilmasining hududiy nomuvofiqligi; marketing va ma’lumot almashinuvidagi parokandalik.

Bu muammolarni hal etish uchun yangi yondashuv — sinergetik rivojlanish zarur. Uning mohiyati — turizm tarmoqlarini bir-biridan alohida emas, balki o‘zaro bog‘liq, birgalikda yuqori samaraga erishadigan tizim sifatida boshqarishda namoyon bo‘ladi. Bu yondashuvda ekoturizm, ziyorat turizmi, agroturizm, madaniy, tibbiy va gastronomik turizm kabi yo‘nalishlar o‘zaro uyg‘unlashgan holda rivojlantiriladi. Masalan, Buxoroda ziyorat turizmini mahalliy hunarmandchilik va gastronomiya bilan integratsiyalash orqali sayyohlar uchun noan’anaviy, multiformat xizmatlar taklif qilish imkonini beradi. Bu esa ularning hududda qolish muddatini uzaytiradi, sarf-xarajatlarni oshiradi va shu orqali mahalliy iqtisodiyotni faollashtiradi.

Sinergetik yondashuvning dolzarbligi shundaki, u boshqaruv tizimida ham ulkan o‘zgarishlarni talab qiladi. Mavjud tizimda turizm yo‘nalishlari alohida tashkilotlar yoki hududiy idoralar doirasida boshqarilmoqda. Bu esa turizm tarmoqlari o‘rtasidagi axborot oqimi, budjet taqsimoti, infratuzilmadan foydalanish va kadrlar bilan ta’minlashda samaradorlikni pasaytiradi. Sinergetik boshqaruv modellari esa tarmoqlararo hamkorlikni yangi institutsional asosda tashkil etish, “bir darcha” (one-stop) usulida xizmat ko‘rsatish, turizm axborot tizimlarini yagona platformada birlashtirish kabi innovatsion yechimlarni talab qiladi.

Turizmning tarmoqli va integratsiyalashgan holda rivojlanishi qishloq hududlaridagi agroturizm, hunarmandchilik va ekoturizm imkoniyatlarini ishga soladi, shu orqali aholi bandligini ta'minlaydi va ichki migratsiya bosimini kamaytiradi. Shuningdek, xususiy sektorning turizmga jalb etilishi hamda davlat-xususiy sheriklik modellarining sinergetik rivojlanish konsepsiyasiga asoslangan holda yo'lga qo'yilishi soha uchun investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarini oshiradi.

Turizm sohasini samarali va barqaror rivojlantirish, uning iqtisodiy va ijtimoiy salohiyatidan to'liq foydalanish uchun turizm tarmoqlarini sinergetik yondashuv asosida rivojlantirish va boshqaruv mexanizmlarini qayta ko'rib chiqish — bugungi kunning ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan dolzarb masalasidir.

ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish masalalariga doir ilmiy tadqiqotlar oxirgi o'n yillikda sezilarli darajada ko'paydi. Ammo tahlillar shuni ko'rsatadiki, mavjud adabiyotlarda turizmning turli tarmoqlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, ularni yagona tizimda boshqarish, sinergetik samaraga erishish masalalari yetarli darajada yoritilmagan yoki ayrim hollarda umumiy konseptual yondashuvlardan uzoqlashmagan.

Turizm sohasini kompleks rivojlantirish va uning turli tarmoqlarini bir-biri bilan uyg'unlashtirishga doir ilmiy-amaliy tadqiqotlar so'nggi yillarda ahamiyat kasb eta boshladi. Iqtisodiy nazariya va boshqaruv sohalarida turizmni tarmoqlararo ta'sir ko'rsatuvchi tizim sifatida o'rganish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Xalqaro tadqiqotchilardan I. Prigojin va G. Xakenlar tomonidan ilgari surilgan sinergetika nazariyasi turli xil elementlar va tarmoqlar o'zaro ta'sir qilganda umumiy samara alohida tarmoqlarning summasidan yuqori bo'lishini nazarda tutadi. Bu nazariy asoslar turizm sohasini ham sinergetik tizim sifatida tahlil qilish imkonini beradi. Turizmning sinergetik rivojlanishiga oid ilk nazariy modellar D. Yedgard va P. Kouts kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ular turizmni barqaror rivojlanish, hududiy taraqqiyot va ijtimoiy infratuzilma bilan bog'liq holda ko'rib chiqishni taklif etadilar [2].

Q. Hamidovning "Turizm va iqtisodiyot: o'zaro ta'sir mexanizmlari" nomli tadqiqotida turizmning milliy iqtisodiyotdagi o'rni, xususan, yalpi ichki mahsulotga ta'siri keng qamrovda tahlil qilingan. Muallif turizmning iqtisodiy faollikni rag'batlantirishi, yangi ish o'rinlari yaratishi, xizmat ko'rsatish va logistika sohalariga qo'shimcha talab paydo qilishini nazariy va amaliyotdagi misollar orqali asoslaydi. Biroq, ushbu ishda turizmning ichki tarmoqlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir yoki sinergetik boshqaruv mexanizmlari alohida tahlil qilinmagan, bu esa mavzuning yetarlicha yoritilmagan jihatlaridan biridir [3].

D. Sattorovning "Innovatsion boshqaruv va turizm tarmoqlarini integratsiyalash modeli" nomli tadqiqotida turizm sohasidagi boshqaruv tizimidagi muammolar ochib berilgan hamda innovatsion yondashuvlarning ahamiyati qayd etilgan. Muallif resurslar va ma'lumotlar almashinuvini yaxshilash zarurati, tarmoqlararo axborot platformalarining yetishmasligi haqida asosli fikrlar bildirgan. Shu bilan birga, integratsiyalashgan boshqaruv modeli ilgari surilgan bo'lsa-da, u ko'proq nazariy

tavsiyalar doirasida qolib ketgan va aniq institutsional mexanizmlar, huquqiy bazaning takomillashuvi masalalari yetarlicha ochib berilmagan [4].

Shuningdek, Sh. Kenjaev o‘z tadqiqotlarida hududiy rivojlanish va turizmning o‘zaro bog‘liqligi, klasterli rivojlanish konsepsiyalarini chuqur o‘rgangan. Xususan, uning "Regional Tourism Development: Synergy and Integration" maqolasida Samarqand va Buxoro misolida ziyorat turizmi, agroturizm va madaniy turizmni uyg‘unlashtirish imkoniyatlari tahlil etilgan. Bu ishda hududlararo resurslardan kompleks foydalanish g‘oyasi ilgari surilgan. Biroq muallifning tadqiqotlari mahdud hududiy misollarga asoslangan bo‘lib, milliy miqyosdagi boshqaruv mexanizmlarining transformatsiyasi masalasi kam yoritilgan [5].

I. Abdurahmonov tomonidan tayyorlangan ilmiy tadqiqotlarda davlat-xususiy sheriklikning turizm sohasidagi imkoniyatlari tahlil qilingan. Muallif sinergetik yondashuv g‘oyasini bevosita tilga olmasa-da, amaliyotda uning elementlari — ya’ni infratuzilmani birgalikda boshqarish, xizmatlar zanjirini yaxlit tizimga keltirish masalalariga to‘xtalib o‘tadi. Uning takliflarida institutsional hamkorlik, mas’uliyatlarni taqsimlash, huquqiy kafolatlar kabi muhim nuqtalar mavjud. Shu bilan birga, tadqiqotda boshqaruv mexanizmlarining raqamli transformatsiyasi yoki zamonaviy biznes-modellar (klaster, platforma, ekotizim) asosida qayta tashkil etish masalalari kam qamrab olingan [6].

Shu bilan birga, turizmning barqaror rivojlanishi, raqobatbardosh turistik mahsulot yaratish, xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish va yangi texnologiyalarni joriy etish masalalari bo‘yicha xorijiy olimlar — M. Porter, J. Tribe, D. Buhalis kabi mutaxassislarning ishlari turizmni klasterlar, raqobatli afzalliklar va raqamli transformatsiya nuqtai nazaridan tahlil qilishda asosiy nazariy manbalardan biri hisoblanadi [7].

Xalqaro manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, sinergetik rivojlanish modeli turizm sohasi uchun xorijda ham yangi tendensiya hisoblanadi. Masalan, J. Tribe o‘zining "The Economics of Recreation, Leisure and Tourism" nomli asarida turizm iqtisodiyotidagi murakkab bog‘liqliklar, tarmoqlararo ta’sir va davlat siyosatining ahamiyatini ko‘rsatgan. Shu bilan birga, u sinergetik yondashuvni alohida konsepsiya sifatida emas, balki umumiy iqtisodiy tizimlar kontekstida ko‘radi [8].

D. Buhalis (2003) esa eTourism nomli ishida raqamli texnologiyalarning turizmdagi transformatsiyasini tahlil qilgan. Uning fikricha, turizmning kelajagi — o‘zaro bog‘liq platformalar, ma’lumotlar almashuvi va intellektual boshqaruvda. Bu jihatlar sinergetik rivojlanishning texnik asosi sifatida qaralishi mumkin. Ammo bu yondashuv ham, asosan, xizmat ko‘rsatish texnologiyalariga qaratilgan bo‘lib, iqtisodiy boshqaruv mexanizmlariga kamroq e’tibor beriladi [9].

O‘zbekistonda mazkur tadqiqotlarning amaliyotga joriy etilishi, xususan, turizm tarmoqlari o‘rtasidagi sinergetik bog‘liqlikni yaratish orqali kompleks boshqaruv tizimini shakllantirish muhim vazifa sifatida qolayotganini ko‘rsatadi. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda turizm sohasidagi tadqiqotlar aniq nazariy yondashuvlarga asoslanishi, sohaviy va hududiy jihatdan uyg‘unlashtirilgan modellar bilan boyitilishi zarur.

METODOLOGIYA

Ilmiy maqolani yozish jarayonida O‘zbekistonda turizm tarmoqlarini sinergetik rivojlantirish asosida boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishda tizimli tahlil, analiz va sintez, qiyosiy va monografik tahlil usullari qo‘llanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekistonda turizm sohasi so‘nggi yillarda jadal rivojlanmoqda. Ammo bu rivojlanish alohida tarmoqlarda sodir bo‘lib, ularning o‘zaro bog‘liqligi va hamkorlikdagi salohiyati hali to‘liq ishga solinmagan. Turizm yo‘nalishlarining rivojlanish dinamikasiga nazar tashlasak, madaniy va ziyorat turizmida o‘shish nisbatan yuqori bo‘lsa-da, agroturizm, ekoturizm va gastronomik turizm singari yo‘nalishlarda o‘shish sur‘ati pastroq bo‘lgan (1-jadval).

1-jadval

Turizm yo‘nalishlari bo‘yicha o‘shish sur‘atlari (foizda)¹

	Turizm yo‘nalishlari	2021-yil	2022-yil	2023-yil
1	Madaniy turizmi	12	16	20
2	Ziyorat turizmi	15	18	21
3	Agroturizm	6	9	12
4	Ekoturizm	4	6	8
5	Gastronomik turizm	5	7	10

Yuqoridagi jadvalda va diagrammada 2021–2023-yillar davomida turizmning asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha o‘shish sur‘atlari tasvirlangan. Jumladan:

- Madaniy turizm 2021-yilda 12 % bo‘lgan bo‘lsa, 2023-yilda 20 % ga yetgan. Bu mamlakatdagi tarixiy yodgorliklarga qiziqishning ortishi va infratuzilmaning yaxshilanishi bilan bog‘liq.

- Ziyorat turizmi ustuvor yo‘nalish sifatida 3 yil ichida 6 % o‘shishga erishgan — 2021-yilda 15 %, 2023-yilda esa 21 %.

- Agroturizm, ekoturizm va gastronomik turizm singari yangilangan yo‘nalishlarda o‘shish mavjud, ammo ularning salohiyati hali to‘liq ishga solinmagan: 2023-yilda ular mos ravishda 12 %, 8 % va 10 % ni tashkil qilgan (2-jadval).

2-jadval

Hududlar kesimida sayyohlar soni (ming kishi)²

	Turizm yo‘nalishlari	2021-yil	2022-yil	2023-yil
1	Toshkent	850	1000	1250
2	Samarqand	620	750	890
3	Buxoro	500	630	750
4	Qoraqalpog‘iston	210	260	310
5	Farg‘ona vodiysi	390	440	510

Yuqoridagi jadvalda ko‘rsatilganidek, 2021–2023-yillar davomida O‘zbekistonning asosiy turistik hududlari bo‘yicha sayyohlar soni barqaror o‘shib borgan. Eng katta o‘shish Toshkent, Samarqand va Buxoroda kuzatilmoqda. Masalan:

¹ Muallif ishlanmasi

² Muallif ishlanmasi

- Toshkent shahrida 2021-yilda 850 ming turist qayd etilgan bo‘lsa, 2023-yilda bu ko‘rsatkich 1,25 millionga yetgan.

- Samarqand va Buxoro viloyatlarida ham har yili o‘rtacha 15–20 % o‘shish kuzatilmoqda, bu esa tarixiy meros va infratuzilmaning rivoji bilan bog‘liq.

Boshqa tomondan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Farg‘ona vodiysida o‘shish nisbatan sekin kechmoqda. Ammo bu hududlardagi tabiiy va madaniy turizm salohiyati yuqori bo‘lib, ularning hozirgi holati yetarlicha ishlatilmayotganini ko‘rsatadi. Sinergetik yondashuv bu hududlarni markaziy turistik oqimga bog‘lash imkonini beradi. Masalan, Farg‘onada agroturizm va hunarmandchilikni ziyorat turizmi bilan uyg‘unlashtirish turistik mahsulotlarni diversifikatsiya qilishga xizmat qiladi (3-jadval).

3-jadval

Turizm infratuzilmasiga investitsiyalar (mlrd so‘mda)¹

	Turizm yo‘nalishlari	2021-yil	2022-yil	2023-yil
1	Toshkent	520	610	700
2	Samarqand	430	500	580
3	Buxoro	390	450	510
4	Qoraqalpog‘iston	120	160	200
5	Farg‘ona vodiysi	180	220	280

Infratuzilmaviy sarmoyalar tahlili turizm sohasidagi rivojlanishdagi asosiy dinamikalarni aniqlash imkonini beradi. 2021–2023-yillardagi ma’lumotlarga ko‘ra:

- Toshkentda turizm infratuzilmasiga investitsiyalar 2021-yilda 520 mlrd so‘m bo‘lgan bo‘lsa, 2023-yilda 700 mlrd so‘mgacha ko‘tarilgan.

- Samarqand va Buxorodagi investitsiyalar ham tez o‘smoqda, 2023-yilda ular mos ravishda 580 va 510 mlrd so‘mni tashkil etgan.

- Qoraqalpog‘istonda investitsiyalar hanuz yetarli darajada emas — 2023-yilda 200 mlrd so‘m atrofida bo‘lib, bu hududning salohiyatini hisobga olganda past ko‘rsatkichdir.

Bu holat tahlili ikki muhim xulosaga olib keladi:

1. Investitsiyalar bilan turistik oqim o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlik mavjud — qaysi hududga ko‘proq sarmoya kiritilsa, u yerda turistlar soni ham shunchalik ko‘paymoqda.

2. Hududiy notenglik — markaziy hududlardagi infratuzilmaviy o‘shish haddan tashqari yuqori, chekka hududlarda esa inersiya holati saqlanib qolmoqda.

Bu holatni tahlil qilar ekanmiz, ayniqsa ikki jihatni ta’kidlash lozim:

1. Tarmoqlararo aloqalarning yetishmasligi: ayrim yo‘nalishlar markazlashgan holda, hukumat tashabbuslari orqali faol qo‘llab-quvvatlanayotgan bo‘lsa-da (mavjud ziyorat turizmi markazlari kabi), boshqa tarmoqlarda mahalliy tashabbuslar yetarlicha muvofiqlashtirilmayapti. Masalan, agroturizm va gastronomik turizm ekoturizm bilan uyg‘unlashgan holda rivojlansa, o‘zaro sinergetik ta’sir orqali umumiy samaradorlik oshishi mumkin.

^{1 1} Muallif ishlanmasi

2. Integratsiyalangan boshqaruv modelining yetishmasligi: ayni paytda turizmni boshqarish ko‘proq tarmoq yoki hudud doirasidagi yondashuvlarga tayanadi. Bu esa umumiy platforma, resurs taqsimoti va marketing harakatlarining ikkilanishiga olib kelmoqda.

Shu jihatdan, tahlil natijalari quyidagi xulosalarni shakllantiradi:

- Turizm yo‘nalishlarini alohida emas, balki o‘zaro bog‘langan ekotizim sifatida rivojlantirish zarur.

- Yagona ma‘lumot platformasi, tarmoqlararo axborot almashinuvi va boshqaruvning muvofiqlashgan mexanizmi yaratilishi zarur.

- Har bir hududda o‘ziga xos turizm tarmoqlarini sinergetik asosda bog‘lash orqali turistik mahsulotlarni diversifikatsiya qilish mumkin.

Masalan, Samarqandda ziyorat turizmini mahalliy gastronomiya va hunarmandchilik bilan bog‘lash yoki Qoraqalpog‘istonda ekoturizmni madaniy turizm bilan uyg‘unlashtirish — yangi turistik yo‘nalishlar yaratishga xizmat qiladi. Bunday yondashuvlar nafaqat sayyohlar sonini ko‘paytiradi, balki ularning hududdagi to‘xtash muddati va sarf-xarajatlarini oshirishga olib keladi.

Turizm sohasidagi rivojlanish hozircha markazlashgan bo‘lib, Samarqand, Buxoro va Toshkent kabi shaharlarga yo‘naltirilgan. Bu esa potensialga ega bo‘lgan boshqa hududlar yetarlicha qo‘llab-quvvatlanmayotganini ko‘rsatadi.

Turizm yo‘nalishlari va hududlar o‘rtasidagi resurslar taqsimoti, infratuzilma va xizmatlar uyg‘unlashmagan holda faoliyat yuritmoqda. Bu esa ikkinchi darajali hududlarning iqtisodiy imkoniyatlaridan to‘liq foydalanilmaslikka olib kelmoqda.

Sinergetik boshqaruv mexanizmi joriy etilsa, turizmni nafaqat yalpi o‘shirish, balki barcha hududlar bo‘yicha hammabop va barqaror rivojlanish tamoyili asosida rivojlantirish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati strategik ahamiyat kasb eta boshladi. Mamlakatning geosiyosiy joylashuvi, boy tarixiy va madaniy merosi, tabiiy resurslari hamda mehmondo‘stlik an‘analari ushbu sohani iqtisodiy o‘shirish nuqtai nazaridan istiqbolli tarmoqlardan biriga aylantirmoqda. Biroq turizm sohasidagi muvaffaqiyatli ko‘rsatkichlarga qaramasdan, sohaning ichki tuzilishidagi tizimli muammolar, hududlararo nomutanosiblik, tarmoqlararo aloqalarning sustligi va boshqaruvning markazlashgan modeli uning to‘liq salohiyatidan samarali foydalanishga to‘sqinlik qilmoqda.

Mazkur maqolada olib borilgan tahlillar, jadvallar va grafik ma‘lumotlar, shuningdek, iqtisodchi olimlar va mutaxassislarining ilmiy qarashlari shuni ko‘rsatadiki, turizm sohasini yanada samarali rivojlantirishning asosiy kaliti — bu sinergetik yondashuvga asoslangan boshqaruv modelini shakllantirish va joriy etishdir. Bu yondashuv, bir tomondan, turizmning turli yo‘nalishlarini (madaniy, ziyorat, agro-, eko-, gastronomik va tibbiy turizm) o‘zaro bog‘lashni, ikkinchi tomondan, ushbu yo‘nalishlarni iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari bilan integratsiya qilishni nazarda tutadi.

1. Ilmiy-amaliy jihatdan. Sinergetik yondashuv turizm sohasini mutlaqo yangi tizimda ko‘rishni talab etadi. Bu — har bir turizm yo‘nalishini avtonom emas, balki yagona ekotizimning bir qismi sifatida boshqarish deganidir. Turizm tarmoqlarining o‘z-o‘zidan rivojlanishi aniq chegaraga ega bo‘lib, ularni birgalikdagi integratsiya orqali rivojlantirish umumiy samaradorlikni ko‘paytirish imkonini beradi. Shu nuqtayi nazardan, mavjud nazorat va boshqaruv tizimlari qayta ko‘rib chiqilishi, tizimli transformatsiyaga ehtiyoj bor.

2. Tashkiliy va institutsional jihatdan. Hozirgi boshqaruv modeli asosan sohalar bo‘yicha vertikal tartibda qurilgan: turizm, qishloq xo‘jaligi, ekologiya, transport va madaniyat sohalaridagi idoraviy chegaralar tarmoqlararo hamkorlikni cheklab qo‘yadi. Buning o‘rnida ko‘ndalang (gorizontal) institutsional munosabatlar, umumiy platforma asosida ishlaydigan turizm klasterlari, davlat-xususiy sheriklik formatlari kengaytirilishi zarur. Yagona raqamli axborot tizimi, turistik ma‘lumotlarni to‘plash va tahlil qilish platformasi, logistika, mehmonxona, gidlik, taom va hunarmandchilik xizmatlarini uyg‘unlashtiruvchi infratuzilmaviy yechimlar joriy etilishi kerak.

3. Iqtisodiy va hududiy jihatdan. Tahlillar shundan dalolat bermoqdaki, markaziy shaharlardagi (Toshkent, Samarqand, Buxoro) investitsiyalar va turistik oqim o‘ssishi hududiy muvozanatsizlikni kuchaytirmoqda. Aniq infratuzilmaviy sarmoyalar va xizmatlar konsentratsiyasi turizmning mintaqaviy rivojiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Shuning uchun hududlar potentsiali va xususiyatlariga asoslangan ixtisoslashgan turizm klasterlarini yaratish, masalan, Qoraqalpog‘istonda — ekoturizm va arxeologik turizm, Farg‘onada — agroturizm va hunarmandchilikni rivojlantirish orqali balansni tiklash mumkin.

4. Kadrlar va ta‘lim sohasida. Sinergetik rivojlanish mutaxassislardan ko‘p tarmoqli ko‘nikmalar, tizimli fikrlash va innovatsion yondashuv talab qiladi. Hozirgi kadrlar tayyorlash tizimi ko‘proq sohaviy bilimlarga asoslangan. Bu holatni o‘zgartirish uchun turizm bo‘yicha multidissiplinar ta‘lim dasturlari, hududiy amaliyotga yaqinlashtirilgan ta‘lim modellari va qo‘shma (qo‘shma ixtisoslikni) o‘quv kurslari joriy etilishi lozim.

Sinergetik yondashuv asosida turizmni boshqarish — bu faqat bir soha ichidagi transformatsiya emas, balki butun iqtisodiyotning innovatsion, samarali va barqaror rivojlanishiga olib boruvchi strategik vositadir. U mamlakatning ichki resurslarini to‘liq ishga solish, hududiy disbalansni kamaytirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va O‘zbekistonning xalqaro sayyohlik bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Buni quyidagilar orqali ta‘kidlashimiz mumkin:

- Yagona milliy sinergetik turizm strategiyasi ishlab chiqilishi va har bir hududning salohiyatini to‘liq qamrab olishi kerak.

- Turizm tarmoqlari o‘rtasidagi hamkorlikni muvofiqlashtiruvchi organ (agentlik yoki platforma) tashkil etilishi, u davlat, xususiy sektor va mahalliy aholi manfaatlarini uyg‘unlashtirishi kerak.

- “Bir darcha” xizmat tizimi orqali logistika, mehmonxona, ta‘lim, sanitariya, madaniy xizmatlar yagona boshqaruv tizimiga bog‘lanishi kerak.

- Turizm investitsiyalari regional tenglik asosida taqsimlanishi va infratuzilma

rivojiga bogʻlangan holda samaradorlik tahlil qilinishi shart.

- Mahalliy tashabbuslarni qoʻllab-quvvatlovchi grantlar, loyiha tanlovlari va inkubatorlar orqali ichki turizm bozori kuchaytirilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 05.01.2019 йилдаги “Ўзбекистон Республикасида туризмни жадал ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-5611-сон Фармони. <https://lex.uz/docs/4143188>
2. Naken G. Synergetics: An Introduction. — Berlin: Springer-Verlag, 1983.
3. Ҳамидов Қ. Туризм ва иқтисодиёт: ўзаро таъсир механизмлари. — Тошкент: Иқтисодиёт, 2019.
4. Саттаров Д. Инновацион бошқарув ва туризм тармоқларини интеграциялаш модели. - Самарқанд: СИХТ, 2021.
5. Kenjaev Sh. Regional Tourism Development: Synergy and Integration. - Journal of Central Asian Economic Review, 2022, №4.
6. Абдурахмонов И. Давлат-хусусий шериклик ва туризм: институционал асослар. - Тошкент: Марказий Осиё иқтисодий тадқиқотлар маркази, 2020.
7. Porter M. The Competitive Advantage of Nations. - New York: Free Press, 1990.
8. Tribe J. The Economics of Recreation, Leisure and Tourism. - Routledge, 2011.
9. Buhalis D. eTourism: Information Technology for Strategic Tourism Management. - Prentice Hall, 2003.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhah: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, aprel, 4-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**